

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDAGI IZCHIL O'ZGARISHLAR

Abdumominova Farangiz Yolqin qizi

Kamoliddin Bexzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti

Amaliy san'at fakulteti

Me'moriy yodgorliklar bezagini ta'mirlash yunalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola mustaqilligimizning 33 yilligiga bag'ishlanadi. Yurtimizdagi Mustaqillik yillarida bo'layotgan quvonarli o'zgarishlar va rivojlanishlar haqida fikrlar yuritildi.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, yo'llar, ko'priklar, tarix, kelajak, ta'lif, fan, madaniyat, tashabbus.

Kirish

Istiqlolning ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. U biz uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Odamlarimiz ko'ksiga shamol tegdi, yelkasi oftob ko'rди. Erkin va farovon hayot barpo etishga bo'lgan chin istak-xohish paydo bo'lib, kelajakka ishonch tuyg'ysi uyg'ondi. Milliy an'ana hamda qadriyatlarimiz qayta tiklandi, ajdodlarimizga xurmat-ehtirom ko'rsatildi. O'z navbatida, boshlangan ulkan qurilish va obodonlashtirish ishlari tufayli shaharu qishloqlarimiz qiyofasi o'zgarib, zamonaviylashib borayotir. Ta'lif muassasalari, yo'llar, ko'priklar, sport majmualari barpo etilayapti. Qisqasi, inson baxtli yashashi uchun nimaiki zarur bo'lsa, barchasi muhayyo qilinmoqda. Mana yaqinda mustaqillik degan ulug' ne'matga, bebaho boylikka erishganimizga ham 33 yil to'ldi. Bugun o'zbek diyori o'zgacha ko'rkka, havas qilarli husnga ega. Chiroyi kundan kunga oshib, yashnab bormoqda. Mustaqillikka erishganimizdan beri qilinayotgan o'zgarish va yangilanishlar maqtanishga arziydi. Mamlakatimizda barcha sohalarda dadil islohotlar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarini zamon talablariga moslagan holda yangilash, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Tashabbus va takliflar qo'llab -quvvatlanib, moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo'llab kelinyapti. Bunday keng ko'lamli ishlar natijasi har jabhada sezilmoqda. Fan va madaniyat, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot, turizm, qurilish, qishloq xo'jaligi taraqqiyoti, farmaseftika, meditsina, televediniya, radio, kinomatografiya... Bularning xar biri ulkan mavzu, bir katta kitob, soatlab, kunlab gapirib, madx etib tugamaydigan bir olamdir.

Zamon talablariga mos yurish bilan birgalikda, milliylik bilan hamohang tazrda olib borilayotgan islohotlar, yurtdoshlarimiz uchun nihoyatda shinam va ko'r kam uy

- joylar, qulay o'qishxonalar, darsxonalar, maktab va universitetlar, ko'pgina imtiyozlarga ega bo'lgan kasb – hunar maktablari, zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlangan va ta'mirlangan, yangitdan qurilgan shifoxonalar, sayyoohlar e'tiborini o'ziga jalb qilib kelayotgan turistik bino majmualari, mehmonxonalar, yurtdoshlarimiz vaqtini yanada mazmunli o'tkazilishini maqsad qilib bunyod etilgan istirohat bog'lari hamma- hammasi Buyuk Mustaqilligimizning, go'zal Vatanimizning bag'ri keng, issiq yuz Xalqimizga beminnat tuxfasi deb bilishimiz kerak. Yurtimizdagi o'zgarishlarni jahon hamjamiyati ham tan olmoqda. Xususan, dunyodagi eng nufuzli nashrlardan biri bo'lgan Buyuk Britaniyaning "Ekonomist" jurnali O'zbekistonni 2019-yildagi eng jadal islohotlarni amalga oshirgan davlat - "Yil mamlakati" deb e'tirof etdi. Islohotlar 2024-yilda ham davom etib, o'z sonini oshirimoqda.

Asosiy qism

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilindi. Toshkent shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston SSR Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida „O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida“gi qaror va „O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari“ to'g'risida qonun qabul qilindi. Qaror bilan O'zbekiston SSR nomi ham O'zbekiston Respublikasi deb o'zgartirildi. 1-sentyabr O'zbekistonning mustaqillik kuni deb belgilab qo'yildi.

2021- yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruva akademiyasida "Yangilanayotgan O'zbekiston uchun yangi avlod kadrlari" mavzusidda xalqaro konfrensiya tashkil etildi. Ushbu konfrensiya har bir yosh uchun qiziq bo'ldi. "El – yurt umidi" jamg'armasi tomonidan tashkil etilgan bu anjumanda AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Kanada, Yaponiya, Avstraliya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan 18ta davlatdan kelgan 300dan ziyod "Umid" jamg'armasi bitiruvchilari ishtirok etdi. Bu 300 o'zbek bitiruvchilari yosh polaponlik kezlarida vatan tomonidan qo'llangan, go'yoki ilk qadamlarini onasi qo'lidan tutib tashlovchi go'dak singari, kelgusi hayot yo'lida Vatanga suyangan yoshlar edi. Ular ishtirokida o'tkazilgan ushbu anjuman bitiruvchilar o'rtaida doimiy aloqa o'rnatish uchun o'ziga xos platforma sifatida tashkil etildi. Konfrensiya ko'pchilik uchun qiziqarli bo'lganini isbotlovchi dalillardan biri <http://conference.eyuf.uz> sayti orqali 600dan ziyod yosh avlodning ro'yxatdan o'tganidir. Barchamizga ma'lumki, ushbu yilda fan, madaniyat, adabiyot, san'at sohasida bir qancha yangilanishlar, islohotlar, turli masalalarni hal qilishga qaratilgankonfrensiyalar tashkil etildi. Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida Buxoro, Nukus, Samarqand, Guliston, Urganch shaharlarda IT- parklar tashkil etilishini,

yaqin yillar ichida barcha qishloq va mahallalarda tezkor internet xizmati yo'lga qo'yishni ta'lim sohasida esa davlat grantlari sonini yanada ko'paytirish, qizlar uchun alohida grantlar tashkil qilishni, ona tili bo'yicha bilimlarni baholashning milliy test tizimi paydo bo'lishini aytib o'tgandilar va bu islohotlar xozirgi kunlarda Yurtimizda keng qollanilayotgani yoshlarimizga yaratilgan ulkan imkoniyatlar eshigi bo'lib xizmat qilmoqda.

Ta'kidlash joizki, tarixiy sanalarga ham munosabat o'zgardi. Jumladan, 1991-yil —Alisher Navoiy yili, 1994-yil —Mirzo Ulug'bek yili, 1996-yil —Amir Temur yili deb e'lon qilindi. Bahouddin Naqshband (1993), Feruz (1994), Imom Buxoriy (1998), Ahmad Farg'oniy (1998), Jaloliddin Manguberdi (1999) 800 yillik, Ajiniyoz Qo'ziboy o'g'li (1999), Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Moturidiy (2000), Abduxoliq G'ijduvoniy (2003), Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy (2004), Oybek (2005), Abdulla Qahhor (2007), Muhammadrizo Ogahiy, Hamid Olimjon (2009) va boshqa buyuk shaxslarning tavallud to'ylari keng miqyosda nishonlandi.

Qadimiy va hamisha navqiron, ko'hna va boqiy shaharlarimiz Buxoro, Xiva (1997) va Termizning (2000) 2500, Qarshining (2006) 2700, Marg'ilonning (2006) 2000, Samarqandning (2007) 2750, Toshkentning (2009) 2200 yillik yubileyalar o'tkazildi. Alpomish dostonining (1999) 1000, Avesto kitobining (2001) 2700 yilligini chinakam bayram sifatida tantana qilindi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan qolgan madaniy tarixiy merosga e'tibor kuchaydi, tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. Istiqlol yillarida Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent. Qo'qon. Shahrисabz kabi shaharlarda ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan bunyod etilgan obidalar o'zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni ta'mirlash va asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Toptalgan tariximiz, qutlug' qadamjolar, hatto nomlari ham unutilayozgan obidalar ta'mirlandi, qayta tiklandi. Imom al Buxoriy, Imom at-Termizi, Abu Mansur al-Moturudi, Ahmad al-Farg'oniy, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi ulug' allomalarimizning sha'nlariga munosib yodgorlik majmualar yaratildi. Toshkent, Samarqand va Shahrисabzda Sohibqiron Amir Temur, Toshkentda Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Urganchda Jaloliddin Manguberdi, Termizda Alpomish haykallari qad ko'tardi.

Bugungi kunda mamlakatimizda etti mingdan ortiq yodgorlik, shu jumladan, 2500 ta me'moriy obida, 2700 tadan ortiq monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. 1991 yildan Xivadagi Ichonqal'a qo'riqxonasidagi, 1993 yildan Buxoro shahri markazidagi, 2000 yildan Shahrисabz shahri markazidagi yodgorliklar Yuneskoning "Umumjahon madaniy merosi" ro'yxatiga kiritildi.

Mustaqillik, erk va ozodlik singari mo'tabar onlarning qo'lga kiritilishidajonbozlik ko'rsatgan, hatto o'z jonini-da ayamagan yurtdoshlarimiz, ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish borasida ham mamlakatimizda bir qator ishlar amalga oshirildi, xususan, xalqimizning milliy o'zligini uyg'otish va mustahkamlash yo'lida butun hayyotini bag'ishlagan Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir, Ubaydulla Xo'jaev singari elimiz ardog'idagi insonlarning nomlarini abadiylashtirish uchun —Qatag'on Qurbonlari xotirasil muzeyi — O'zbekiston fan tizimidagi ilmiy-ma'riyyiy muassasa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —Qatag'on qurbanlarini yod etish kunini belgilash to'g'risida 2001 yil 1 maydag'i farmoni qabul qilindi va shuning asosida Toshkent shahrida —Shahidlar xotirasil yodgorlik majmui 2002 yil 31 avgustda barpo etildi.

2001 yildan buyon, "O'zbekturmiz" milliy kompaniyasi Buxoro mintaqaviy bo'limi hamda bir guruh hunarmandlar va turistik firmalar rahbarlari tashabbusi bilan Buxoro shahrida "Ipak va ziravorlar" an'anaviy festivali tashkil etiladi. Ushbu tadbiriga respublikamizning barcha viloyatlaridan turistik tashkilotlar, hunarmandlar, xorijiy va mahalliy sayyoohlar qatnashadilar. Festival doirasida ipak va ziravorlar savdosi va palov sayllari, milliy o'yinlar, sport musobaqalari va milliy liboslar namoyishi, hunarmandlarning mahorat namoyishlari va turli madaniy tadbirlar tashkil etilishi ushbu festivalning anana darajasiga ko'tarilishini ta'minladi. Ushbu dalillar mamlakatimizda xalqimiz ma'naviy merosiga bildirilayotgan chuqrur hurmat va e'tibordandalolat bo'lib, unio'rganish, tadqiq etib, kelajak avlodga yetkazish borasida olib borilayotgan say-harakatlar davlatimizning ma'naviyat sohasiga ustuvor siyosat darajasida qarayotganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston mustaqilligining 33 yilligi "Bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!" shiori ostida o'tkazildi.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qaror qabul qilar ekan, unga kora mehnatkash va bag'rikeng xalqning bunyodkorlik salohiyati bilan erishilayotgan ulkan natijalarning mazmun-mohiyati haqida mahallalar, ta'lim muassasalari, mehnat jamoalarida ma'rifiy uchrashuv va suhbatlar o'tkaziladi. Mustaqillik bayrami munosabati bilan Ikkinchchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama e'zozlash, "Mehribonlik", "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftarlariiga kiritilgan hamda ko'makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish, ularga moddiy va ma'naviy yordam berish bilan bog'liq xayriya tadbirlari o'tkazildi.

Ha, shuncha imkoniyat va yengillliklar yaratilgan yurtda yashagan har bir shaxs har nafasini “Vatan!” deya olsa arziydi. Yuqorida sanab o’tilganlar dengizdan tomchi, xamir uchidan kichik kulcha kabitidir. Negaki, bunday islohot va o’zgarishlar yildan yilga, har kuni o’z sonini oshirmoqda, ortmoqda. Taraqqiy etayotgan yurtimiz yorqin kelajak sari oldinga tomon odimlasa odimlayaptiki, aslo to’xtagan emas.

Shu bois mamlakatimizda bugungi kunda milliy urf-odat va qadriyatlarni asrab avaylash, ularni yosh avlod ongiga singdirish orqali boqiyligini ta’minalash borasidagi islohotlarni ko’rib, dunyo ahli hayratlanayotgani bejiz emas.

Xulosa

Ey, aziz yurtdoshim, zamondoshim Tarixning oltin zarvaraqlariga aylanayotgan har bir kunimizning qadriga yetaylik, imkoniyatlardan keng foydalanaylik. Yurtimizning tinchligiga, go’zalligiga shukrona aytib uning qadriga yetaylik, asrab avaylaylik. Zero, bizning xalqimiz uchun ma’naviy qadriyatlar hamisha qadrli va komil insonni tarbiyalashda yuksak ahamiyatga ega muhim vosita — ma’naviy ko’prik bo’lib hisoblanadi, kelajak avlodni ana shu ruhda tarbiyalash orqali milliyligimizni asrab-avaylash, milliy qadriyatlarimizni saqlash va avloddan-avlodga yetkazish, ayniqsa, biz yoshlар uchun doimo eng dolzarb masala bo’lib qoladi. Mustaqillik bizga milliy o’ziga xosligimizni, or-nomus va g’ururimizni, milliy qadriyatlar, urf-odat va an’analalarimiz bilan faxrlanish hissini qaytargan bayram sifatida abadiy qoladi va jonajon Vatanimiz yilnomasiga oltin harflar bilan yoziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gulzoda Baxtiyorovna Ergasheva, Shahinabonu Tohirova MUSTAQILLIK NE’MATIGA SHUKRONA QILISH VA UNING MUSTAHKAMLIGINI SHAQLASH // Scientific progress. 2021. №7.
2. A. N. Gulyamova MUSTAQILLIK YILLARDA AJDODLAR MA’NAVIY MEROJI VA MILLIY QADRIYATLARGA MUNOSABAT // Academic research in educational sciences. 2022. №3.
3. Tyurikov V., Shagulyamov R.. Mustaqil O’zbekiston Respublikasi: unutilmas voqealar va sanalar Nashr-2, 10000 ækz, Toshkent: O’zbekston, 1998. ISBN 5-640-02328-7
4. Atabayeva, N., Abdusamadova, G., Xusanova , F., & Abdukarimova , G. (2024). MUSTAQILLIK YILLARIDA O’ZBEKISTONDAGI MA’NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT. Ilm-Fan Va ta’lim, (6(21).
5. Tarixiy obidalar - O’zbekistonning tarixiy obidalari https://uztarix.narod.ru/tarixiy_obidalar.html